



Ministry of Higher
Education, Science
and Innovation of the
Republic of Uzbekistan



2025
March 29



Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi

Прагмалингвистика, функциональное переводоведение и интеграция процессов преподавания языка

Pragmalinguistics, functional translation studies and integration of language teaching processes

International Scientific and Theoretical Conference

Section 1: Cognitive science and linguoculturology in modern linguistics.

Section 2: Literary studies and society.

Section 3: Problems of comparative typology and translation studies, modern problems of philology.

Section 4: Integration of information and communication technologies into the language learning process.

for more info



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ingliz tilshunosligi kafedrası

**PRAGMALINGVISTIKA, FUNKSIONAL
TARJIMASHUNOSLIK VA TIL O‘RGATISH
JARAYONLARI INTEGRATSIYASI**

**mavzusidagi xalqaro miqyosidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari
TO‘PLAMI**

2025 yil, 29-mart

Buxoro – 2025

Pragmalingvistika, funksional tarjimashunoslik va til o'rgatish jarayonlari integratsiyasi maqola va tezislar to'plami, to'plovchi va nashrga tayyorlovchi: M.A.Shukurova, G.F.Xayrullayeva, A.X.Qodirova; Buxoro; 2025 yil, 337 bet.

To'plamda respublikamiz olimlari, katta ilmiy xodim-izlanuvchilari va mustaqil izlanuvchilarining xorijiy tillarda o'quv va badiiy adabiyotlar, elektron darsliklar, ixtisoslashtirilgan rasmlar bilan bezatilgan gazetalar va jurnallarni yaratish hamda chop etish samaradorligini oshirish, yoshlarda chet tilni egallash darajalarining Yevropa tizimi (CEFR)ni o'rganishning o'rni, yoshlarga chet tilni o'rgatishning psixologik aspektlari, chet tilni o'rganishda til xususiyatlarining ahamiyati va muammolari, til va madaniyatlararo kommunikatsiya metodlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslik masalalari, uslubshunos olimlarning ilg'or tajribalarining roli kabi masalalar talqiniga bag'ishlangan maqolalari o'z ifodasini topgan. To'plamda til muammolari bilan qiziquvchi ilmiy xodimlar, katta ilmiy-xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistrantlar va o'quvchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay'ati:

Prof. O.X.Xamidov, prof.K.A.Samiyev, prof. M.Q.Baqoyeva, prof.
D.S.O'rayeva, dots. N.B.Ataboyev, prof. Z.I.Rasulov (mas'ul muharrir),
M.A.Shukurova (mas'ul kotiba)

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchilari: M.A.Shukurova, G.F.Xayrullayeva,
A.X.Qodirova

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi, professor M.H.Alimova
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.B.Bakayev
Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z.B.Toshev

Haydarov A.A., Sharipova F. Konnotativ ma'no va uning fonetik vositalarda ifodalanishining nazariy asoslari.....	171
Haydarov A.A., Sattorova Sh.U. Theoretical foundations of phonographic stylistic devices	173
Haydarov A.A., Barnoyeva M.A. Лексико-семантические и прагматические особенности антонимических конструкций в узбекской и английской художественной литературе	175
Gadoyeva M.I., Khayrulloeva A.T. The influence of globalization on clothing Terminology	179
Ataboyev N.B. Lisoniy korpuslar so'z qo'llashga oid statistik baza sifatida.....	181
Qobilova N.S. Принцип фонетической экономии речи как знаковая система особого типа	185
Rakhmatova M.M., Rakhmonova J. Translation challenges: analysis of speaker meaning (implicature) in context	188
Tursunov M.M. A Scope of Eastern and Western cultures including languages.....	190
Saidova M.U. Sayfiyeva M.S., Synonyms and antonyms as cohesive devices in english literary discourse.....	193
Saidova M.U. Tursunova S.G'. O'zbek va ingliz xalq maqollarida sintaktik stilistik vositalarni ifodalanilishining qiyosiy tahlili	195
Vakhidova F.S., Sadullayeva U. Sh. Toponimikani tadqiq qilishga doir yondashuvlar	197
Vakhidova F.S., Urunova I.N. Hunarmandchilikka oid leksik birliklarining semantik xususiyatlari	200
Vakhidova F.S., Faxriyeva D.O. Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi terminologiyasining xalqaro standartlarga mosligi	203
Shukurova M.A., Sobirova Sh.Sh. The Expression of the Category of Verb in the English and Uzbek Languages	206
Shukurova M.A., Sobirova V.Sh. Comparative Linguistics And Translation Issues In The Era Of Globalization	209
Shukurova M.A., Hikmatova A.Q. The use of Similes in English and Uzbek: A Cross-Linguistic Study	211
Kobilova A.B., Rakhmatova A.K. Cultural and linguistic borrowing in English and Uzbek toponomy.....	213
Jalilova Z.B., Nutfullayeva L.F. Стилистика рекламных слоганов на русском языке	215
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M. Mirmuhsinning "Xo'jand Qal'asi" asarida ishlatilgan nutqiy tejamkorlik elementlarining tahlili.....	218
Yunusova A.A. Нутқ актлари назарияси.....	220
Naimova A.M. The Technique of Historical inversion.....	224
Ruziyeva N.X., Oymamatova M.T. Xushmuomalalikning onlayn muloqotdagi o'rni.....	226
Xabibullaeva F.K. Воссоздание национального своеобразия как критерий адекватности перевода	229
Kesamirova S.R. Исследование терминосистем в процессе перевода.....	232
Yuldasheva F.E. Madaniyatlararo muloqot sharoitida xushmuomalalik kategoriyasining verballashuv omillari.....	236
Ernazarova N.Kh. Congratulations and best wishes: based on cultural, social and speech etiquette	239
Akramov I.I. Aphorisms as a Linguistic Economy	241
Navruzova N.Kh. Connotative analysis in the English and Uzbek Languages	245
Mukhammadieva N.M. The Emotional Impact of Language: Analyzing the words "Heavenly", "Terrifying", and "Betrayed"	247
Ubaydullayeva M.O'. Specific features of Lacunae in Russian and Uzbek Languages.....	249
Artikov A.X. Characteristics of advertising discourse in English and Uzbek Languages	252
Qodirova H.Kh. Linguacultural aspects in translation of false Speech Acts.....	256
Yadgarova Z.T. Kontaminatsiya fonostilistik hodisa sifatida	258
Barotova N.Sh. Analysis of Paradigm "Hero" in Cinema Discourse.....	260
Hojiyeva M.T. Structural Model Prohibitory Clauses	263

8. Fanfani, Giovanni. 2017. "Weaving a Song. Convergences in Greek Poetic Imagery between Textile and Musical Terminology. An Overview on Archaic and Classical Literature". None. <https://doi.org/10.13014/k2154f74>
9. Kovpak, Viktoriia and Lebid, Nataliia. 2022. "CREATIVE INDUSTRIES AS A MECHANISM OF CREATIVE ECONOMY AND STRATEGIC COMMUNICATIONS". Izdevnieciba Baltija Publishing. <https://doi.org/10.30525/2256-0742/2022-8-4-102-109>
10. You, Xuemin, Legino, R., Xiao, Pan, Arif, Mohd Fuad Md, and Ling, Wang. NaN. "Sustainable Production Strategies: Incorporating Internet Celebrity Aspects into Yingjing Black Sand Craft Design". International journal of research and innovation in social science. <https://doi.org/10.47772/ijriss.2024.8080351>

УДК 581.14

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZIYORAT TURIZMI TERMINOLOGIYASINING XALQARO STANDARTLARGA MOSLIGI

*BuxDU, ingliz tilshunosligi kafedrası o'qituvchisi
f.f.d (PhD), Vaxidova Fatima Saidovna,
e-mail: f.s.vakhidova@buxdu.uz
Faxriyeva Dilorom Otamurodovna
1-kurs magistratura talabasi,*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi terminologiyasining xalqaro standartlarga muvofiqligi o'rganilgan. Tadqiqot davomida turizm sohasidagi asosiy xalqaro tashkilotlar, jumladan ISO va UNWTO tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, terminlarning pragmatik funksiyasi va madaniy xususiyatlari, ularning xalqaro muloqotdagi roli o'rganildi. Ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan terminlarning fonetik va semantik o'ziga xosliklari tahlil qilinib, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha amaliy takliflar berildi.

Kalit so'zlar: ziyorat turizmi, terminologiya, xalqaro standartlar, pragmatik funksiya, madaniy xususiyatlar.

Annotation: This article explores the compatibility of pilgrimage tourism terminology in English and Uzbek with international standards. The research examines regulatory documents established by major international organizations, including ISO and UNWTO. The study investigates the pragmatic functions and cultural characteristics of the terms and their role in international communication. The phonetic and semantic features of the terms used in English and Uzbek have been analyzed, and practical recommendations for their alignment with international standards have been provided.

Keywords: pilgrimage tourism, terminology, international standards, pragmatic function, cultural characteristics.

Аннотация: В данной статье рассматривается соответствие терминологии паломнического туризма на английском и узбекском языках международным стандартам. В ходе исследования были изучены нормативные документы, разработанные такими международными организациями, как ISO и UNWTO. Исследованы прагматические функции и культурные особенности терминов, а также их роль в международной коммуникации. Проведен анализ фонетических и семантических особенностей используемых терминов, представлены практические рекомендации по их адаптации к международным стандартам.

Ключевые слова: паломнический туризм, терминология, международные стандарты, прагматическая функция, культурные особенности.

1. Ziyorat Turizmi va Uning O'ziga Xosligi

Ziyorat turizmi (pilgrimage tourism) insonlarning diniy, ma'naviy yoki tarixiy ahamiyatga ega joylarga tashrif buyurishini anglatadi. Bu turizm turi diniy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosni o'rganishga asoslanadi. Masalan, o'zbek tilida "ziyoratgoh", "muqaddas qadamjo", ingliz

tilida esa "pilgrimage site", "holy place" kabi terminlar ishlatiladi. Ziyorat turizmi – sayohatning diniy va ma'naviy maqsadga yo'naltirilgan turi bo'lib, muqaddas qadamjolar, tarixiy-diniy maskanlarni ziyorat qilishni o'z ichiga oladi. Bu turizm turi qadimdan mavjud bo'lib, zamonaviy global turizmning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Diniy-ma'naviy motivatsiya: Sayohat maqsadi muqaddas joylarni ziyorat qilish, diniy-ma'naviy qadriyatlarni chuqurroq anglash hisoblanadi. Masalan, Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasi. Madaniy va tarixiy meros bilan bog'liqlik: Ziyorat turizmi ko'pincha milliy va tarixiy obidalarini ziyorat qilish bilan ham uzviy bog'liq. Jamiyatlararo muloqotni rivojlantirish: Ushbu turizm turi turli xalqlar va din vakillari o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlaydi. Ziyorat turizmi xalqaro maydonda rivojlanishi uchun ISO va UNWTO tomonidan belgilangan standartlarga rioya qilish muhim. Masalan, pilgrimage tourism va spiritual tourism terminlarining xalqaro darajada bir xilda qo'llanishi turistik xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.. Shu bilan birga, o'zbek tilida diniy-ma'naviy terminlar o'zining tarixiy ildizlari bilan ajralib turadi, ingliz tilida esa terminlar ko'proq umumiy tushunchalarni aks ettiradi. Ziyorat turizmi nafaqat ma'naviy ehtiyojlarni qondirish, balki madaniy merosni targ'ib qilishda ham muhim o'rin tutadi. Ingliz va o'zbek tillarida ushbu turizm bilan bog'liq terminlarni xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqish orqali O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini kengaytirish mumkin.

2. Ingliz va O'zbek Tillari Terminologiyasini Shakllantirish

Turizm sohasida terminlar muayyan tamoyillarga asoslanib shakllanadi. Ingliz tilidagi terminlar ko'pincha xalqaro miqyosda tan olingan bo'lib, o'zbek tilida esa milliy madaniy xususiyatlar aks ettiriladi. Masalan, "pilgrim" so'zi o'zbek tiliga "ziyoratchi" deb tarjima qilinadi, lekin "ziyoratchi" so'zi ko'proq diniy motivlarga urg'u beradi. Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi sohasida terminologiyani shakllantirish jarayoni turli lingvistik, madaniy va pragmatik omillarga asoslanadi. Ingliz tili "Global lingua franca" bo'lib, xalqaro turizm sohasida standartlashtirilgan terminologiyaga ega. Masalan, pilgrimage site, spiritual tourism, sacred place atamaları keng qo'llaniladi. O'zbek tilida esa terminologiya ko'pincha milliy madaniy va diniy qadriyatlarga asoslanadi. Masalan, ziyoratgoh, muqaddas qadamjo, tabarruk maskan kabi atamalar ishlatiladi. Semantik moslashtirish: Ma'no jihatdan mos tushadigan atamalarni tanlash. Masalan, pilgrim – ziyoratchi, holy site – muqaddas maskan. Fonetik moslashtirish: Ingliz tilidan kirib kelgan terminlarni fonetik me'yorlarga muvofiq moslashtirish. Masalan, tourist – turist, spiritual tourism – ma'naviy turizm. ISO va UNWTO (Jahon sayyohlik tashkiloti) tavsiyalariga muvofiq terminlarni birlashtirish lozim. Masalan, cultural tourism va spiritual tourism tushunchalarini izchil ishlatish orqali xalqaro tushunarlik ta'minlanadi. Ingliz tilida diniy motivlar ko'pincha neytral shaklda beriladi (spiritual journey), o'zbek tilida esa diniy va madaniy an'analarga urg'u kuchliroq (ziyorat safari, tabarruk qadamjo).

3. Xalqaro Standartlar va Terminologik Birliklar

Turizm terminologiyasini xalqaro darajada uyg'unlashtirish uchun ISO (International Organization for Standardization) tomonidan qabul qilingan standartlarga asoslaniladi. Masalan, ISO 18513:2003 mehmonxona va turizm xizmatlari uchun umumiy terminlarni belgilaydi. Ziyorat turizmi terminologiyasida ham bu kabi standartlarga tayanish zarur. Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi sohasida terminologiyani shakllantirish jarayoni turli lingvistik, madaniy va pragmatik omillarga asoslanadi. Xalqaro standartlar va terminologik birliklar ziyorat turizmi sohasida global muloqotni osonlashtirish va tushunmovchiliklarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu jarayonning asosiy jihatlari tahlil qilinadi: Xalqaro Standartlashuv Tashkilotlari va Ularning Ahamiyati. ISO (International Organization for Standardization) – turizm va mehmonxona sohalarida umumiy terminlarni belgilashda asosiy tashkilot. Masalan, ISO 18513:2003 mehmonxona va turizm xizmatlari uchun umumiy atamalarni belgilaydi. UNWTO (United Nations World Tourism Organization) – turizm bilan bog'liq global standartlarni ishlab chiqadi va ilgari suradi. Pilgrimage tourism – ziyorat turizmi, Spiritual tourism – ma'naviy turizm, Sacred site – muqaddas qadamjo, Pilgrimage destination – ziyorat maskani. Bu terminlar xalqaro darajada tushunarli bo'lib, o'zbek tiliga milliy madaniy xususiyatlarni hisobga olib moslashtiriladi. Korpus lingvistika asosida terminlarni o'rganish va ularni xalqaro standartlarga mos ravishda

takomillashtirish. Tarjimaviy muvofiqlik: Inglizcha spiritual heritage site termini o'zbek tilida ma'naviy meros obyekti tarzida qabul qilinishi kerak. Terminologik birliklarni belgilashda pragmatik funksiyalarga e'tibor qaratiladi. Masalan, xalqaro sayyohlar pilgrimage tour atamasini tushunsa-da, mahalliy turistlar uchun ziyorat safari tushunchasi yaqinroq bo'lishi mumkin. Ziyorat turizmi sohasida xalqaro standartlar va terminologik birliklarni ta'minlash orqali xalqaro aloqalar mustahkamlanadi, turistik xizmatlar sifati oshadi va madaniyatlararo muloqot samarali bo'ladi.

4. Pragmatik Funksiya va Madaniy Xususiyatlar

Terminologiya pragmatik funksiyalarning to'g'ri ishlatilishini ta'minlaydi. Ziyoratchilar uchun xizmat ko'rsatishda xalqaro tushunarli terminlar ishlatilishi muhim. Masalan, o'zbek tilidagi "ziyosat maskani" termini xalqaro miqyosda "pilgrimage destination" sifatida ishlatiladi. Lekin bu tushuncha ingliz tilida diniy bo'lmagan ma'naviy sayohatlarni ham qamrab olishi mumkin. Pragmatik funksiya va madaniy xususiyatlar ziyorat turizmi terminologiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u til birliklarining muloqotdagi amaliy funksiyasini va madaniy xususiyatlarga bog'liq o'ziga xosliklarini o'rganadi. Quyida bu jarayonning asosiy jihatlari tahlil qilinadi: Pragmatik funksiya terminlarning kontekstda qanday ishlatilishini tushuntiradi. Informativ: Sayyohlarga muqaddas qadamjolar haqida ma'lumot berish (pilgrimage site – ziyorat maskani). Yo'naltiruvchi: Sayohat davomida ziyoratchilarga yordam berish (visitor information center – ziyoratchilar uchun ma'lumot markazi). Rag'batlantiruvchi: Ziyoratga da'vat etish (spiritual journey awaits you – ma'naviy sayohat sizni kutmoqda). Har bir xalqning diniy va madaniy qadriyatlari turlicha bo'lgani sababli, terminologiyani shakllantirishda quyidagilar e'tiborga olinadi: 1. Ingliz tilidagi spiritual tourism o'zbek tiliga ziyorat turizmi yoki ma'naviy turizm sifatida tarjima qilinishi mumkin, ammo ularning ishlatilish konteksti farq qiladi.

Madaniy jihatlar: O'zbek tilida tabarruk qadamjo termini diniy ma'noga ega bo'lsa, ingliz tilida heritage site umumiy tarixiy obidani ham anglatishi mumkin. Turistik materiallarni tarjima qilishda so'zlarning amaliy qo'llanilishiga e'tibor beriladi: Holy site – muqaddas qadamjo (diniy konnotatsiya) va Heritage site – madaniy meros obyekti (diniy bo'lmagan konnotatsiya). Turizm sohasida xalqaro sayyohlarga xizmat ko'rsatishda terminlarni madaniy jihatdan moslashtirish kerak. Misol uchun: Pilgrimage tour – ziyorat safari: O'zbekistonda ziyorat safari tushunchasi an'anaviy diniy sayohatni anglatadi, ingliz tilidagi pilgrimage tour esa ko'proq tarixiy va diniy obidalarni o'z ichiga oladi. Pragmatik funksiya va madaniy xususiyatlarni hisobga olib ziyorat turizmi terminologiyasini shakllantirish sayyohlarning madaniy merosga qiziqishini oshiradi va xalqaro turistik muloqotni samarali qiladi. Dunyo tajribasida Saudiya Arabistoni, Isroil va Hindiston ziyorat turizmini rivojlantirishda xalqaro terminologik birliklarga tayangan. O'zbekistonda esa Xiva, Buxoro, Samarqand va Termizdagi ziyoratgohlarni xalqaro turistik terminlar bilan ta'minlash lozim. Misol uchun, "Imam al-Buxoriy majmuasi" uchun "Imam al-Bukhari Memorial Complex" atamasi ishlatiladi. Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi terminologiyasining xalqaro standartlarga mosligi uchun pragmatik yondashuv, ISO standartlaridan foydalanish va madaniy xususiyatlarni hisobga olish lozim. Bu esa xalqaro sayyohlar bilan samarali muloqotni ta'minlash va turizm sohasida xalqaro integratsiyani kuchaytiradi

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillarida ziyorat turizmi terminologiyasini shakllantirish jarayoni xalqaro standartlarga muvofiqlikni, madaniy xususiyatlarni hisobga olishni va pragmatik funksiyalarning to'g'ri qo'llanilishini talab etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ISO va UNWTO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan terminologik birliklar turizm sohasida muloqotni osonlashtirishga xizmat qiladi. O'zbek tilida ziyorat turizmi bilan bog'liq terminlarni shakllantirishda milliy madaniy an'analar muhim rol o'ynaydi. Ziyoratgoh, tabarruk qadamjo kabi atamalar diniy va madaniy merosni aks ettirsa, ingliz tilidagi pilgrimage site va spiritual tourism kabi terminlar esa umumiy xalqaro tushuncha berishga xizmat qiladi. Pragmatik yondashuvga ko'ra, terminlarning xalqaro me'yorlarga mosligi bilan birga ularning amaliy qo'llanilishidagi konnotativ va denotativ ma'nolari ham hisobga olinishi lozim. Xalqaro terminologik birliklarni milliy o'ziga xosliklarni saqlagan holda moslashtirish orqali O'zbekiston ziyorat turizmining xalqaro maydondagi nufuzini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vaxidova, F.S. (2020). Tilshunoslik va turizm terminologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. Crystal, D. (2012). English as a Global Language. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Richards, J.C. & Schmidt, R. (2010). Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. London: Routledge.
4. UNWTO Reports (2021). Pilgrimage Tourism: A Global Overview. Madrid: World Tourism Organization Publications.
5. ISO 18513:2003. Tourism Services – Hotels and Other Types of Tourism Accommodation – Terminology. Geneva: International Organization for Standardization.

THE EXPRESSION OF THE CATEGORY OF VERB IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Shukurova Madina Askarovna

Doctor of philosophy in philological sciences (PhD), Associate professor of English linguistics department, BSU

e-mail: m.a.shukurova@buxdu.uz

Sobirova Shaxinabonu Sharifovna
the 3rd year student of BSU

Keywords: verb categories, tense, aspect, mood, voice, transitivity, English language, Uzbek language, comparative analysis, grammatical structure.

Abstract: This article focuses on a comparative analysis of the expression of verb categories in the English and Uzbek languages. It examines the main verb categories such as tense, aspect, mood, voice, and transitivity, with an emphasis on how these categories are expressed in the two languages. Special attention is given to the differences in the use of auxiliary verbs and affixes to form tenses, aspects, and moods, as well as the comparison of constructions for expressing active and passive voices, and the differences in verb transitivity. The material will be useful for learners of both English and Uzbek, as well as those engaged in translation and linguistic research.

Ключевые слова: категория глагола, время, аспект, наклонение, залог, переходность, английский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, грамматическая структура.

Аннотация: Статья посвящена сравнительному анализу выражения категории глагола в английском и узбекском языках. Рассматриваются основные категории глаголов, такие как время, аспект, наклонение, залог и переходность, с акцентом на способы их выражения в этих двух языках. Особое внимание уделяется различиям в использовании вспомогательных глаголов и аффиксов для образования времен, аспектов и наклонений, а также сравнению конструкций для передачи активного и пассивного залога, а также различиям в глагольной переходности. Материал будет полезен для изучающих как английский, так и узбекский языки, а также для тех, кто занимается переводом и лингвистическими исследованиями.

Verbs are fundamental elements in both English and Uzbek, as they express actions, states, and processes. However, the way verbs are categorized and expressed in these two languages varies due to differences in their grammatical structures and linguistic features. The expression of verb categories such as tense, aspect, mood, voice, and transitivity differs significantly in English and Uzbek, reflecting the unique syntactic and morphological characteristics of each language.

1. Tense and Aspect

English: In English, the category of **tense** is explicitly expressed through verb conjugations and auxiliary verbs. English has three primary tenses: present, past, and future. Each tense can be further divided into different aspects to show the nature of the action in terms of its completion, ongoing nature, or repetition.

- **Present Tense:** Expresses actions happening now or habitual actions.